



TIJORAT SIRI TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Raxmonaliyeva Mukambar Komiljon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11384797>

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi axborot tushunchasiga ta'rif berilib, uning bir ko'rinishi bo'lgan "tijorat siri" atamasining mohiyati olimlar fikri va xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida tahlil qilinadi. Tahlillar natijasida aniqlangan qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: axborot, tijorat siri, qonuniy asosda erkin foydalanmaslik, tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar.


Axborot uzoq vaqt davomida huquqiy tartibga solish obyekti hisoblanmagan. "Axborot" hodisasining o'zi qadimiy bo'lib, jamiyat rivojlanishi davomida tegishli atama va ta'riflarga ega bo'lgan. XX asrning 40-yillari boshida va oxirigacha axborot odamlar tomonidan og'zaki, yozma va boshqa yo'llar bilan uzatiladigan ma'lumotlar deb hisoblangan. Axborot xat yoki xabarlar shaklida mavjud bo'lgan. XIX asrda ma'lumot beruvchi o'qituvchi, ma'lumot esa ta'lim yoki ko'rsatma sifatida qabul qilingan va bu tushuncha birinchi navbatda muayyan obyektga yangicha xusiyat beradigan harakatlarni ifoda etgan. Hozirgi vaqtda "axborot" atamasi lotinchadan tarjima qilganda "informatio" – tanishish, tushuntirish, taqdim etish ma'nolarini anglatadi.

Axborotning bir turi hisoblangan tijorat siri bozor iqtisodiyoti sharoitida katta ahamiyatga ega, chunki u tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi raqobat muhitini tartibga soluvchi eng kuchli omil hisoblanadi. Xo'sh, "tijorat siri" nima va tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning asosiy belgilari qanday?

Rumyantsev O.G. va Dodonov V.N.ning huquqiy ensiklopedik lug'atida ta'kidlanishicha, tijorat siri fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan fuqarolik huquqlari obyektlaridan biri bo'lib, maxsus himoya rejimiga ega.

Shiverskiy A.A.ning fikriga ko'ra, "tijorat siri – bu korxona tomonidan himoya qilinadigan, ishlab chiqarish, yangi texnologiyalar, tashkiliy, tijorat va boshqa faoliyat sohasidagi ma'lumotlar, uning boshqa shaxslarga noma'lumligi korxona uchun haqiqiy yoki potentsial tijorat qiymatiga ega, oshkor etilishi esa korxona manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin".

Bizning fikrimizcha, tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning yuqoridagi ta'riflari tijorat siri belgilarini to'liq ochib bermaydi va izohlamaydi. Shu bilan birga, Yuqoridagi ta'riflar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 98-moddasida bayon qilingan tijorat sirining eng asosiy xususiyatlarini ko'rsatadi:





maxfiylik, ya'ni uchinchi shaxslarga tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning noma'lumlighi;

uchinchi shaxslarga noma'lumlighi sababli ushbu ma'lumotlarning haqiqiy va potentsial qiymatga egaligi.

Ko'plab xorijiy davlatlarning qonunchiligiga ko'ra tijorat siri ikki turdagi ma'lumotlardan iborat: ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq texnik masalalarga ta'sir qiluvchi ma'lumotlar (nou-xau) va tijorat ma'lumotlari, ya'ni sotish usullari, mijozlar bazasi, pudratchilar bilan tuzilgan shartnomalar mazmuni va boshqalar. Masalan, Rossiya Federatsiyasining "Tijorat siri to'g'risida"gi Federal qonunida tijorat siri deganda uning egasiga mavjud yoki mumkin bo'lgan sharoitlarda daromadlarni oshirish, asossiz xarajatlardan qochish, tovarlar, ishlar, xizmatlar bozorida mavqega ega bo'lish yoki boshqa tijorat imtiyozlarini olish, daromadlarni saqlashga imkon beradigan ma'lumotlarning maxfiyligi tushuniladi.

Kanadada ko'rilgan sud pretsedentlarida esa tijorat siriga quyidagicha ta'rif beriladi:

- tijorat siri mulk huquqi bo'lib, patentdan farqi shundaki, sir tovarni tekshirish yoki boshqa halol yo'l bilan aniqlanishi bilanoq, kashfiyotchi undan to'liq foydalanish huquqiga ega bo'ladi;

- tijorat siri – bu faqat uning egasiga va uni sir tutishi kerak bo'lgan xodimlarga ma'lum bo'lgan reja, jarayon, vosita, mexanizm yoki birikma;

- tijorat siri atamasi patentlanmagan, faqat ayrim shaxslarga ma'lum bo'lgan maxfiy formula yoki jarayonni bildiradi va undan tijorat qiymatiga ega bo'lgan ma'lum savdo buyumlarini ishlab chiqarishda foydalaniladi;

- tijorat siri – muayyan shaxsning biznes faoliyatida ishlatiladigan, raqobatchilarga noma'lumlighi sababli o'z egasiga ustunlik beradigan va foyda keltiradigan har qanday formulalar, naqshlar, qurilmalar yoki ma'lumotlar to'plami.

Rossiya Federatsiyasi qonunida tijorat siriga berilgan ta'rif O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi ham nazarda tutilgan.

Bizning fikrimizcha, tijorat sirini "uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lganligi sababli tijorat qiymatiga ega bo'lgan" va "qonuniy asosda undan erkin foydalanish imkoni yo'q" ma'lumotlar sifatida ta'riflash noto'g'ridir. Chunki ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga noma'lumlighi o'z-o'zidan uni korxonaning tijorat qimmatli ma'lumotlari deb tan olish uchun yetarli emas. Avvalo, axborotning qiymati uning mazmuni bilan belgilanadi. Qolaversa, "qonuniy





asosda erkin foydalanishning imkoni yo'qligi" jumlasini tijorat siridan har qanday shaxs noqonuniy foydalanishi mumkin degan ma'noni beradi. Shu sababdan, ma'lumotlarning mavjud emasligi to'g'risidagi shartda "qonuniy asosda" jumlasini keraksizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бачило И.Л., Лопатин В.Н., Федотов М.А. Информационное право: Учебник / Под ред. акад. РАН Б.Н. Топорнина. - СПб.: Юридический Центр Пресс, 2001. С. 27.
2. Ожегов С.И. Словарь русского языка Изд. 22-е, стереотипное. - М. 1990. С. 253.
3. Розенберг В. Промысловая тайна. - СПб.: Типография редакции периодических изданий Министерства Финансов, 1910. С. 68.
4. Мотрошиловой Н.В. История философии. Запад-Россия-Восток. - М.: Греко-латинский кабинет Ю.А. Шичалина, 2000. С.269.
5. Aer A. Patents in Imperial Russia (A history of Russian Institution on Invention Privileges under the Old Regime). - Helsinki: 1995. С.80.
6. Jager M.F. Trade Secret Law T. 1. - NY.: 1990. P. 2-4.

